

8.2.Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.  
 8.3.Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng huquqliy kuchga ega.  
 8.4.Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

9. Neft mahsulotlarini yetkazib berish tafsilotlari

Neft mahsulotining nomi, rusumi	O'Ich ov bir-ligi	Narxi	Yillik miqdori	Summasi	Shu jumladan choraklar bo'yicha			
					I	II	III	IV
Benzin	l	4000	1285	8995000				

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«SOTUVCHI»

«Qarshi neft bazasi» MChJ  
 Qarshi shahri Shayx Ali qo'rg'oni

INN: 200672124 MFO: 00432

OKONX: 80190

H/r: 20210000100530460001

O'z San'at Qurilish bank

Yashnobod filial

Direktor v.v.b. O'Ro'ziev



«ISTE'MOLCHI»  
 Qarshi neft bazasi  
 Qarshi shahri Shayx Ali qo'rg'oni  
 8995000 litr  
 1285 litr  
 8995000 litr  
 1285 litr



NEFT MAHSULOTLARINI TO'G'RIDAN-TO'G'RI SOTISH TO'G'RSIDA

66 sonli SHARTNOMA

2022 y. "18" yanvar

Qarshi sh.

Keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb ataluvchi «Qarshi neft bazasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor v.v.b O.Ro'ziev bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi «Qarshi neft bazasi» nomidan ikkinchi tomondan, nizom asosida ish yurituvchi «Qarshi neft bazasi» ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

a. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini quyush va yuklab berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

b. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilevasidagi spesifikasiya orqali belgilab oladilar.

Spezifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarini shakllantirishda, «Sotuvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi tashkil 8995000 (sakkiz million to'qqiz yuzdan sakkiz so'm) ni qiladi.

2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Sotuvchi» tomondan ularni neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan (avtobenzin va dizel yonilg'isi bo'yicha yakuniy iste'molchiga sotilganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i hisobga olinmagan holda) shakllanadi.

2.3. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Sotuvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Sotuvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.5. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ga o'z transport vositasida neft mahsulotini yetkazib berganda «Iste'molchi» transport xizmati uchun xaq to'laydi.

### 3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Sotuvchi»ning omboridan yoki unga qarashli yoqilg'i quyush shaxobchalaridan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standart talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat e'limaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh kelishi uchun «Sotuvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtosistemalar (Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xohlatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Sotuvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlariga (2517-2012 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.4. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Sotuvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

### 4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnomalar hamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Sotuvchi»ning omborida yoki unga qarashli AYOQShda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Sotuvchi» ombori yoki AYOQSh hududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

### 5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Sotuvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan hujjatlarida qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifati, shuningdek sifati pasportini talab qilish huquqiga ega.

### 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. «Sotuvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Sotuvchi» neft mahsulotlari sifati o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Sotuvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

### 7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qirg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo'lganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

### 8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi.

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

### 1. Loyihaning turi:

Fuqarolik shartnomasi. "Neft mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri sotish haqida".

### 2. Loyihaning nomi:

"Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi bilan "Qarshi Neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2022-yil 1-choragi uchun jami 8.995.000 (sakkiz million to'qson to'qqiz yuz besh ming) so'mlik neft mahsulotlarini sotib olish to'g'risida"

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri N.Samadova. 2022-yil 24-yanvar.

Loyiha amaldagi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1996 yildagi Fuqarolik Kodeksi (II-qism), O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'RQ-670-I-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) Ro'yxatning 22-bandi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi boshlig'i**

**U.Ablakulov**

2022-yil 26-yanvar

